

# **TALABA-YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI SPORT MUSOBAQALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH**

**Karimov Ravshan Abdupattoevich**

*FarDU Harbiy ta'lim fakul'teti boshlig'inining  
ma'naviy va marifiy ishlar buyicha o'rinnbosari*

**Xajiev Muxiddin Musajonovich**

*FarDU Harbiy ta'lim fakul'teti oqituvchisi.*

Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom turmish tarzini shakllantirish, aholining ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlar o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanzarvarlik, ona vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanishiga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunga misol qilib Prezidentning 2019 yil 19-martdag'i "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil e'tish buyicha 5 ta muhim tashabbus" doirasida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2023-yil "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanishish chora tadbirlari to'g'risidagi" qarorlar chiqarilib, bu qarorlar yangi avlod kadrlarini etishtirish, yoshlarni tashabbuskor, jismonan soglom, manan etuk, bunyodkor qilib tarbiylab yoshlarni vatanzarvarlik ruxida tarbiyalashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Davlatimiz raxbariyati tomonidan chiqarilgan qaror va nizomlar ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'onan davlat universitetida xam muntazam xar xil turdag'i sport musobaqalari va tadbirlari tashkillashtirilib o'tkazilib kelinmoqda, bunga misol qilib kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 32-yilligi va Vatan himoyachilarini kunini nishonlash, tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish choratadbirlari to'g'risidagi" F-79-sonli farmoyishini irosini ta'minlash maqsadida, harbiy ta'lim fakultetida talabalar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazildi. Musobaqani tashkil etishdan asosiy maqsad talaba-yoshlar o'rtasida salbiy illatlarning oldini olish, harbiy-amaliy sport musobaqalariga keng jalb etish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport o'yinlariga ommaviy tarzda jalb qilish, sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan, dastlabki harbiy va psixologik tayyorgarlikka ega vatanzarvar, ma'suliyatli, qiyin va ekstremal vaziyatlarda to'g'ri baholash va harakatlanish va ko'nikmalarini oshirish shu bilan birga vatanga muhabbatli va

sadoqatli, jismonan baquvvat ma’naviy-axloqiy etuk, professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan zahiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashga qaratilgandir. Ushbu musobaqa 1-2-3- kurs talabalarinig saralangan 6 ta jamoasilar o‘rtasida sportning quyidagi turlaridan tashkillashtirildi.

- Ya’ni:
1. “TIR” da o‘q otish mashqlarini bajarish;
  2. “DK-400” majmuasida o‘q otish mashqlarini bajarish;
  3. “AK-74” rusumli qurollarni noto‘liq qismlariga yoyish va qayta yig‘ish;
  4. “Umumqo‘shin himoya to‘plamini kiyish” mashqini bajarish;
  6. “Arqon tortish”;
  7. “Shaxmat”;
  8. “Stol tennisi”;
  9. “Engil atletika” (400 mga. Estafeta yugurish);
  10. “Turnikda tortinish”;

Musobaqa natijalariga ko‘ra jamoalarning murosasiz kechgan baxslaridan song 1-orinni 2-kursning “Lochin” komandasasi, 2-orinni 3-kursning “Sarxad” komandasasi 3-orinni 1-kursning “CHaqqonlar” komandasasi qo‘lga kiritdilar. G‘olib jamoalar fakultet raxbariyati tomonidan qimmatbaxo sovg‘a va sertifikatlar bilan taqdirlандilar .

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakultetida 5 ta muhim tashabbus doirasida o‘tkazilib kelinayotgan barcha tadbirlar, sport musobaqalari xamda turli tanlovlardan albatta malakali kadrlarni tayyorlashda samarali yordam berish bilan birga talabalar orasida do‘s-t-birodarlik, jamoadoshini qo‘llab-quvvatlash sifatlarini rivojlantirishga qolaversa ta’lim jarayonida olgan bilim va malakalarini mustaxkamlashga xizmat qilmoqda.

Vatanparvarlik fakat qo‘lga qurolni olib ximoya kilishdan iborat emas. YAxshi o‘kish yaxshi o‘qitish mexnat qilish ma’naviyatlari, ma’rifatli odobli axlokli tarbiya-intizomli avlod va millatning jonkuyari bo‘lish xam vatanparvarlikdir.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘yyatgani bu masuliyatni xis qilgan holda biz pedagoglar, Prezidentimiz va davlatimiz raxbariyati tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarni dasturi amal qilgan xolda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqr singdirish, ular uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bor kuch g‘ayratlarini ilm olishga qaratishlari kelgusida yurtni tinchligi yurtni farovonligi yo‘lida kuch g‘ayratlarini sarflashga doimo shay turishlari kerakligini uqtirishimiz

zarurdir. Albatta bu ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas‘ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirishni talab etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqiyoti stategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston, 2022 y. 4-27 b
2. “2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi”. Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29-iyundagi 267-son qarori.
3. Prezident Mirziyoev Sh.M “YOshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil e’tish buyicha 5 ta muhim tashabbus” 2019 yil 19-mart.
4. SH.X.Tillavoldiev. “Xarbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” darslik. Farg‘ona-2023 yil.